
**Fargʻonada mahalliy byudjetning 2018-yilgi parametrlari qanday?
Xalq deputatlari viloyat kengashi tomonidan Fargʻona viloyati mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari tasdiqlandi. Xoʻsh, joriy yilda viloyatning asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari qanday boʻladi?**

Yil yakunlari boʻyicha yalpi hududiy mahsulot hajmi 16,7 trillion, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,8 trillion, qishloq xoʻjaligi 4,3 trillion, chakana savdo aylanmasi 8,9 trillion soʻmga hamda xizmatlar koʻrsatish hajmi 6,5 trillion soʻmga yetkazilishi rejalashtirilmoqda.

Mahalliy tovarlarni eksport qiluvchilar uchun tashqi savdo sharoitlarini yaxshilash hisobiga hududiy eksport hajmi yil yakuniga qadar 206 million dollardan ortiq boʻlishi koʻzda tutilmoqda.

Eʼtiborli jihati, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini taʼminlash maqsadida 2017 yildan boshlab mahalliy byudjetlar daromadlari prognozining oshirib bajarilgan qismi toʻlaligicha mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirilmoqda. Xususan, oʻtgan yil 9 oyi davomida belgilangan reja koʻrsatkichlarining oshirib bajarilgan 36,5 milliard soʻmi, birgina 3-chorakning oʻzida esa 15,4 milliard soʻm mablagʻ mahalliy hokimliklar ixtiyorida qoldirildi.

Joriy yilda ijtimoiy soha uchun 2 trillion 290 milliard soʻm yoʻnaltirish belgilandi. Mazkur koʻrsatkich jami xarajatlarning 87,4 foizini tashkil etmoqda. Taʼlim xarajatlariga 1 trillion 339 milliard soʻm yoki oʻtgan yilga nisbatan 117,1 foizga, sogʻliqni saqlash muassasalari tomonidan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari xarid qilish uchun 58 milliard soʻm yoki oʻtgan yilga nisbatan qariyb 2 barobar koʻproq mablagʻ ajratildi.

Maʼsudjon Sulaymonov, OʻzA

manba: [OʻzA. Xalq deputatlari Fargʻona viloyat Kengashining 2017 yil 30-dekabrdagi V-XXVI/155-sonli qarori](#)

2018-01-11 15:03:22